



## O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'YIN TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Eshmurodova Roziya Siddiq qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davkat pedagogika intituti,  
Turkiy tillar fakulteti, O'zga tilli guruhlarda O'zbek tili ta'lif yo'nalishi  
2- kurs talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8313671>

### ARTICLE INFO

Received: 23<sup>th</sup> August 2023

Accepted: 30<sup>th</sup> August 2023

Online: 31<sup>th</sup> August 2023

### KEY WORDS

*Metod, texnologiya, pedagogika, evristik metodi, Suqrot, suhbat jarayoni, savol-javob, babs-munozara jarayonlari.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada, o'zbek tili darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish to'g'risida keltirilgan bo'lib, darsda suhbat, savol-javob, babs-munozara jarayonlarini evristik metodda qay tarzda foydalanish, shuningdek, bu metodlar o'quvchilar uchun qanchalik foydali ekanligi, mavzuni yaxshi o'zlashtirishi uchun ko'mak bo'lishi ta'kidlangan.*

Dars o'tish jarayonida o'yin texnologiyalari ya'ni turli xil metodlardan foydalaniladi. Buning asosiy sababi esa subyektning obyektga qarshi yo'naltirilgan ta'sir orqali obyektda sezilarli tarzda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Professor N.Sayidahmedovning fikricha "Texnologiya — bu shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida jo qiladigan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir"<sup>1</sup> Darhaqiqat, o'yin texnologiyalardan ko'proq pedagogikada shug'ullanadi. Ulardan biri evristik metodi hisoblanib, bu metodni Qadimgi Gretsiya faylasufi Suqrot o'ylab topgan. Evristik so'zi yunon tilidan tarjima qilinganda "heurisko" - "Men ochaman", "izlayman", "topaman" degan ma'nolarni bildiradi ya'ni bu bilim topish, savollarga javoblar haqida. Suqrot ta'lif berishda maruza o'qib o'rgatishdan voz kechib, evristik metodi bo'yicha savol-javob, babs munozara orqali o'rgatishni afzal bildi. Uning asosiy maqsadi shogirdlariga yaxshi bilim berish, ta'limi chuqurroq o'rgata olish bo'lgan. Undan so'ng bu kabi metodikalarning ta'siri shogirdlari Aflatun va Arostunning asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu metod ancha avval paydo bo'lgan bo'lsada, yaqin yillardan boshlab keng qo'llana boshlagan. Metoddan asosan, fikrlashga, mulohaza qilishga undash uchun ishlatilgan. O'quvchilar qanchalik keng fikrlasa, ularning o'ziga, dunyoga bo'lgan ishonchi ortadi va bilim saviyasi o'sib boradi. Yaqin yillarda esa venger matematigi Jorj Polya ham evristik metoddan foydalanib juda ko'plab natijalarga erishgan va metod haqida qo'llanma ham yozib qoldirdi. Uning fikricha evirostik metod bu strategiyadir ya'ni oldiga o'yanma maqsadini rejalar asosida mukammallashtiradi va harakat qiladi. Evristik ta'lif - o'quvchining o'ziga xos ma'nosi, ta'lif maqsadi va mazmunini, shuningdek, uni tashkil etish, diagnostika qilish va xabardor qilish jarayonini qurishga

<sup>1</sup> Omonov H.T, Xo'jayev N.X, Madyarova S.A, Eshchonov E.U Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - Toshkent, 2009


qaratilgan o'rganish (A.V. Xutorskoy)<sup>2</sup> Evristik metodni beshinchi sinf o'quvchilarida qo'llanilsa ularda yangi qo'shimcha mavzularni o'zlashtirishi osonlashadi. Sababi, ularda boshlang'ich sinfdan yuqori sinfga o'tish jarayonida mavzularni tushunmasligi, o'zlashtira olmay qiynalish holatlari uchrashi mumkin.

Evristik metodning birinchi usuli bu savol-javob tarzda o'tkaziladi. Masalan:

1. Omonimlar deb nimaga aytildi?
2. Omonimlarga misollar keltiring?
3. Samalyot qushdek uchdi. Men bugun uch oldim. Gapda qo'llanilgan omonimlarni toping?
4. Omonim va ko'p ma'noli so'zlarning farqi nimada?

kabi so'roqlarga o'quvchilar javob qaytarishadi. Har bir mavzuni savol-javob tarzda o'tkazish bu mavzuni tez va qulay o'rgatishni ta'minlaydi. Shu bilan birga bolalarning nutqi rivojlanadi, dars vaqtida va boshqa jamoat joylarida fikrini bemalol ayta oladi. Evristik metod orqali o'quvchilar mavzuni yaxshi o'zlashtirilishi, o'z fikrini bemalol ayta olishi va mavzuni uzoq vaqt yodda saqlab qolishi mumkin.

Evristik metodning ikkinchi usuli bu bahs-munozara orqali tushuntirish. Bu metod ham juda yaxshi samara ko'rsatadi. Mavzu doirasida berilgan matnlarni yoki mavzuning o'zini, berilgan topshiriqlarni ham bahs - munozara orqali tushuntirish mumkin. Misol uchun: keltirilgan rasmlar nima uchun berilgani haqida bahs yuriting va ularning ma'nosini izohlang.



Bu rasmlar orqali o'quvchilarning mavzu doirasida fikr yuritishi osonlashadi, omonimlar haqida tushunchasi ortadi. Berilgan topshiriqlari izohlash jarayonida bahs va munozara boradi. Bu ham ularning mavzuni yaxshi o'zlashtirishlariga yana bir yordam bo'la oladi. Dasr davomida o'quvchilar bilan birga savol-javob, bahs-munozara olib borilsa ularning barcha diqqati darsga ya'ni mavzuga qaratiladi va yaxshi o'zlashtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bolalar uchun faqat bitta emas balki bir nechta metodikadan foydalanish qulay. Bu o'qituvchiga tajriba bo'lsa, o'quvchiga bilim olishi uchun ko'mak bo'la oladi. Evristik metoddan juda ko'plab natijalarga erishish mumkin. Olimlar o'rganib chiqishganda ham bu metod orqali ko'zlangan maqsadga albatta erishish mumkinligi

<sup>2</sup> <https://erteam.ru>



aytib o'tgan. Evristik metod bu barcha yoshdagi o'quvchi, talabalar uchun mo'ljallangan va yillar davomida sinalib, foydalanib kelinayotgan metodlardan biri.

**References:**

1. Omonov H.T, Xo'jayev N.X, Madyarova S.A, Eshchonov E.U Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - Toshkent, 2009
2. Mahmudov N, Sobirov A, Sattorov Sh, Toshmirzayeva Sh, Mannopova D, 5-sinf Ona tili - Toshkent, 2020
3. <https://erteam.ru>
4. <http://shuhratbek.uz>
5. <https://erteam.ru>